

**Mavzu: YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO‘LIB, YANGI HAYOT VA KELAJAK
YARATAMIZ!**

**Oilada: Mening oilam - Vatanimning bir bo‘lagi
mavzusida muhokama
(9-11-sinflar uchun)**

Maqsadi

O‘quvchilarda oila va Vatan tushunchalari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni anglatish, har bir oilaning yutuqlari butun jamiyat va Vatan ravnaqiga xizmat qilishini tushuntirish hamda tanqidiy mushohada yuritish, o‘z fikrini dalillar bilan asoslash va munozara madaniyatini shakllantirish.

Kutilayotgan natija

Ushbu munozarali-muhokamali mashg‘ulot yakunida o‘quvchilar oila jamiyat hamda davlatning ajralmas poydevori ekanligini chuqur anglab, oilaviy mas‘uliyat va vatanparvarlik tushunchalarining uzviy bog‘liqligini tahlil qilishni o‘rganadilar; o‘z fikrlarini mustaqil va asosli ravishda bayon etish, o‘zgalar qarashlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish hamda sog‘lom bahs-munozara olib borish ko‘nikmalarini shakllantiradilar; shuningdek, shaxsiy va oilaviy qadriyatlarning Vatan ravnaqi hamda tinchligiga qo‘shadigan hissasini his etib, oila farovonligi jamiyat taraqqiyotining asosiy omili degan yaxlit xulosaga keladilar.

Tashkiliy qism - 5 daqiqa

O‘quvchilar bilan samimiy salomlashish, davomatni aniqlash va sinfning mashg‘ulotga tayyorgarligini nazorat qilish. O‘quvchilar diqqatini jamlab, ularni mashg‘ulotga ruhiy jihatdan tayyorlash. Mashg‘ulot mavzusi va maqsadini qisqacha tushuntirib, faol ishtirok etish va o‘z fikrlarini erkin bayon qilishga yo‘naltirish.

Motivatsion qism - 5 daqiqa

O‘qituvchi: Assalomu alaykum, aziz o‘quvchilar! Bugungi mashg‘ulotimizni boshlaymiz. Sizlarga uyga vazifa sifatida oilangiz davrasida “Mening oilam - Vatanimning bir bo‘lagi” mavzusida suhbatlashish topshirilgan edi. Umid qilamanki, har biringiz oila a‘zolaringiz bilan ushbu mavzu yuzasidan fikr almashib, o‘zingiz uchun muhim bo‘lgan xulosalarga kelgansiz.

Bugun esa ana shu suhbat davomida bildirgan fikrlaringizni mashg‘ulotda birgalikda muhokama qilamiz. Avvalo, oila, tarbiya, qadriyatlar va Vatan tushunchalari bir-biri bilan qanday bog‘liqligi haqida fikr yuritamiz.

Suhbatimizni quyidagi savollar bilan boshlaymiz:

Oila siz uchun qanday ma’noga ega?

Oilangizda siz uchun eng muhim bo‘lgan qanday qadriyatlar mavjud?

Oilada olgan tarbiya va qadriyatlar insonning Vatanga bo‘lgan munosabatiga qanday ta’sir qiladi?

“Mening oilam - Vatanimning bir bo‘lagi” degan fikrni qanday tushunasiz?

Marhamat, uyda oila a‘zolaringiz bilan bo‘lgan suhbatdan kelib chiqib, o‘z fikrlaringizni erkin bayon qiling. Bugungi muhokamada har bir fikr biz uchun muhim.

O‘quvchilar: O‘z fikrlarini bayon etadilar.

Asosiy qism: Munozara uchun keys-tahlili - 20 daqiqa

Sinfdagi o‘quvchilar **5 ta kichik guruhga** bo‘linadi. Har bir guruhga hal qilish uchun alohida **munozarali vaziyat (keys)** beriladi. Guruhlar o‘z pozitsiyasini himoya qilishi va boshqa guruhlar savollariga javob berishi kerak.

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, endi mashg‘ulotimizning asosiy qismiga o‘tamiz. Bu bosqichda sizlar berilgan vaziyatlarni tahlil qilib, o‘z fikringizni asoslash va boshqalarning qarashlariga munosabat bildirish orqali faol ishtirok etasiz.

Hozir sinfimiz 5 ta kichik guruhga bo'linadi. Har bir guruhga alohida keys, ya'ni hayotiy vaziyat beriladi. Sizlardan ushbu vaziyatni diqqat bilan o'rganish, muammoning asosiy jihatlarini aniqlash va o'z guruhingizning nuqtayi nazarini shakllantirish talab etiladi.

Guruhda ishlash davomida har bir a'zo o'z fikrini bildirishi va umumiy xulosaga kelishda faol ishtirok etishi muhim. Keysni muhokama qilish uchun sizlarga 7–8 daqiqa vaqt beriladi.

Shundan so'ng har bir guruhdan bir nafar vakil - spiker chiqib, guruhning umumiy fikri va xulosalarini 1 - 2 daqiqa davomida taqdim etadi. Taqdimotdan keyin boshqa guruhlar savollar berishi, o'z fikrini bildirishi va muhokamada ishtirok etishi mumkin.

Munozara davomida bir-birimizning fikrimizni hurmat qilamiz. Savollarimiz aniq va mazmunli, javoblarimiz esa asoslangan bo'lishiga e'tibor qaratamiz. Bu yerda asosiy maqsad kimning fikri to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlash emas, balki masalaga turli nuqtayi nazardan qarash va o'z fikrimizni dalillar asosida himoya qilishdir.

Demak, har bir guruh o'z keysini diqqat bilan tahlil qiladi, fikrlarini birlashtiradi va umumiy xulosaga keladi.

Marhamat, guruhlar bilan ishlashni boshlaymiz!

1-guruh: Iqtisodiy-ijtimoiy yondashuv guruhi

Vaziyat: Ba'zi insonlar oilaning asosiy vazifasi - avvalo o'z farovonligini ta'minlash, yaxshi yashash uchun mehnat qilish va oilaning ehtiyojlarini qondirishdan iborat, deb hisoblaydi. Ularning fikricha, jamiyatdagi boshqa masalalarni davlat va tegishli tashkilotlar hal qilishi kerak. Boshqalar esa oilaning farovonligi jamiyat va mamlakat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq, deb hisoblaydi. Har bir oila a'zosining halol mehnat qilishi, yaxshi ta'lim olishi, kasb egallashi, qonunlarga rioya qilishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi mamlakat rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Muhokama uchun savol:

Sizningcha, oilaning farovonligi va jamiyat taraqqiyoti o'rtasida qanday bog'liqlik bor? Har bir oila a'zosi Vatan rivojiga qanday hissa qo'sha oladi?

2-guruh: Ma'naviy-axloqiy va an'anaviy yondashuv guruhi

Vaziyat: Bugungi kunda yoshlar internet va ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanmoqda. Turli mamlakatlarning madaniyati, turmush tarzi va qarashlari bilan tanishish imkoniyati tobora ortib bormoqda. Shu sababli ayrimlar zamonaviy hayotda oila, milliy qadriyatlar va an'analarning yoshlar tarbiyasidagi o'rni kamayib bormoqda, deb hisoblaydi.

Boshqalar esa insonning Vatanga bo'lgan muhabbati, milliy qadriyatlarga hurmati, kattalarga ehtiromi, kichiklarga g'amxo'rliqi va o'zaro ahillik kabi fazilatlari, avvalo, oilada shakllanishini ta'kidlaydi.

Muhokama uchun savol:

1. Sizningcha, oiladagi muhit va tarbiya yoshlarning Vatanga bo'lgan munosabatiga qanday ta'sir qiladi?

2. Agar oilada milliy qadriyatlarga hurmat, mehr-oqibat va ahillik kamayib borsa, bu holat jamiyat hayotiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin?

3. Internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bilan birga milliy qadriyatlarni saqlab qolish uchun yoshlar nimalarga e'tibor berishi kerak?

3-guruh: Shaxsiy mas'uliyat va harakat guruhi

Vaziyat: Ba'zi o'quvchilar: "Men hali maktab o'quvchisiman. Vatan ravnaqiga qanday hissa qo'sha olaman? Hozirgi asosiy vazifam - yaxshi o'qish", deb hisoblaydi.

Boshqa o'quvchilar esa Vatanga foydali bo'lish faqat katta va muhim ishlarni amalga oshirishdan iborat emasligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, oilaga hurmat bilan munosabatda bo'lish, maktab qoidalariga rioya qilish, atrof-muhitni asrash, jamoat joylarini ozoda saqlash, berilgan vazifalarni mas'uliyat bilan bajarish va boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lish ham fuqarolik mas'uliyatining muhim ko'rinishlaridir.

Muhokama uchun savol:

1. Sizningcha, maktab o'quvchisi Vatan ravnaqiga qanday foydali ishlar bilan hissa qo'sha oladi?
2. Kundalik hayotdagi kichik, ammo mas'uliyatli xatti-harakatlar jamiyat rivojiga ta'sir qilishi mumkinmi? Fikringizni misollar bilan izohlang.
3. "Vatanga foydali bo'lish bugundan boshlanadi" degan fikrni qanday tushunasiz?

4-guruh: Globallashuv va milliy qadriyatlar guruhi

Vaziyat: Bugungi globallashuv davrida yoshlar uchun chet elda ta'lim olish, ishlash va xalqaro tajriba orttirish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Ayrim yoshlar yaxshi ta'lim olish yoki kasbiy faoliyatini rivojlantirish uchun boshqa davlatlarda yashashni maqsad qiladi. Ba'zilar esa insonning qayerda yashashi yoki ishlashidan ko'ra, uning Vatanga bo'lgan munosabati va jamiyatga qo'shayotgan hissasi muhimroq, deb hisoblaydi. Boshqalar esa inson qayerda bo'lmasin, o'z Vatanini, ona tilini, milliy qadriyatlarini va ajdodlari merosini unutmasligi kerakligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, chet elda o'qish yoki ishlash Vatan bilan aloqani uzish degani emas. Aksincha, xorijda orttirilgan bilim va tajribani kelajakda yurtimiz rivoji uchun qo'llash mumkin.

Muhokama uchun savol:

1. Sizningcha, yoshlarning chet elda o'qishi yoki ishlashi Vatanga bo'lgan sadoqatiga ta'sir qiladimi? Fikringizni asoslang.
2. Chet elda ta'lim olgan yoki ishlagan yoshlar o'z bilim va tajribasi bilan O'zbekiston rivojiga qanday hissa qo'shishi mumkin?
3. Inson xorijda yashayotgan bo'lsa ham, o'z Vataniga, ona tiliga va milliy qadriyatlariga sodiq qolishi uchun nimalarga e'tibor berishi kerak?

5-guruh: Mahalla va hamjihatlik guruhi

Vaziyat: Xalqimiz orasida "Hovling tinch - olaming tinch", "Bir kishiga ming kishi yondosh" kabi maqol va hikmatli iboralar azaldan qo'llanib kelgan. Ular insonning tinchligi va farovonligi nafaqat o'z oilasi, balki atrofidagi insonlar bilan yaxshi munosabatda bo'lishi va hamjihatlikka ham bog'liq ekanini anglatadi. Bugungi kunda esa ayrim insonlar faqat o'z oilasi va shaxsiy hayoti bilan shug'ullanish, qo'ni-qo'shnilar yoki mahalla hayotiga befarq bo'lish mumkin, deb hisoblaydi. Boshqalar esa mahalladagi o'zaro hurmat, hamkorlik va yordam jamiyatdagi barqarorlik va ahillik uchun muhim ekanini ta'kidlaydi.

Muhokama uchun savol:

1. Sizningcha, insonning oiladagi tinchligi va farovonligi mahalla va jamiyatdagi muhit bilan qanday bog'liq?
2. Qo'ni-qo'shnilar o'rtasidagi hurmat, o'zaro yordam va hamjihatlik jamiyat uchun nima sababdan muhim?
3. "Oila - mahalla - jamiyat - Vatan" tushunchalari o'rtasida qanday bog'liqlik bor?
4. Yoshlar mahalla va jamiyat hayotida hamjihatlikni mustahkamlash uchun nimalar qilishi mumkin?

Keyslarni muhokama qilish tartibi: Har bir guruh o'ziga berilgan keysni 7-8 daqiqa davomida muhokama qiladi. So'ng har bir guruhdan bir nafar vakil chiqib, guruhning umumiy fikrini 1-2 daqiqa davomida bayon qiladi.

Nutqdan so'ng boshqa guruhlar taqdim etilgan fikrlar yuzasidan savollar beradi, o'z munosabatini bildiradi va fikr almashadi.

IV. Umumlashtirish - 10 daqiqa

"Aks-sado" metodi

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, bugungi munozaramiz davomida oila, Vatan, fuqarolik mas'uliyati, milliy qadriyatlar va jamiyatdagi hamjihatlik haqida turli fikrlarni tingladik. Har bir guruh o'z qarashlarini asoslashga harakat qildi.

Endi “**Aks-sado**” metodi orqali bugungi fikrlarimizni umumlashtirib, asosiy xulosalarni birgalikda shakllantiramiz.

Avvalo, shuni unutmasligimiz kerakki, oila - jamiyatning eng kichik, ammo eng muhim bo‘g‘inidir. Oiladagi tarbiya, o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik va mas’uliyat insonning shaxs sifatida shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Har bir oilada sog‘lom muhit va ezgu qadriyatlar qaror topsa, bu jamiyatning barqarorligi va taraqqiyotiga ham ijobiy ta’sir qiladi.

Shuningdek, Vatan tushunchasi faqat hudud yoki davlat nomi bilan cheklanmaydi. Vatan - biz tug‘ilib o‘sgan yurt, oilamiz, ona tilimiz, milliy qadriyatlarimiz, tariximiz va shu yurtda yashayotgan insonlar bilan bog‘liq muqaddas tushunchadir.

Demak, Vatanga bo‘lgan munosabatimiz kundalik hayotimizdagi amallarimizda ham namoyon bo‘ladi. Yaxshi o‘qish, halol mehnat qilish, ota-onani hurmat qilish, tabiat va tarixiy merosni asrash, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish - bularning barchasi Vatanga bo‘lgan hurmatning amaliy ifodasidir.

Endi men bir fikrni aytaman, sizlar esa uni davom ettirib, o‘z xulosangizni bildirasiz.

O‘qituvchi: “Oila mustahkam bo‘lsa...”

O‘quvchilar: “...jamiyat ham mustahkam bo‘ladi.”

O‘qituvchi: “Yoshlar bilimli va mas’uliyatli bo‘lsa...”

O‘quvchilar: “...Vatan kelajagi yanada farovon bo‘ladi.”

O‘qituvchi: “Vatanga muhabbat...”

O‘quvchilar: “...ezgu ishlar va mas’uliyatli harakatlarda namoyon bo‘ladi.”

O‘qituvchi: Barakalla! Demak, bugungi mashg‘ulotimizdan shunday xulosaga kelishimiz mumkin: mustahkam oila - farovon jamiyatning, bilimli va faol yoshlar esa mamlakat kelajagining muhim tayanchidir.

Eng muhimi, Vatan ravnaqiga hissa qo‘shish katta ishlarni kutib o‘tirmasdan, bugundan, o‘zimizdan va kundalik yaxshi amallarimizdan boshlanadi.

“Biz uchun muhim!”

O‘quvchi tomonidan Partfolio qanday tayyorlanishi tushuntiriladi: 3 daqiqa

O‘qituvchi: Bolalar, portfolio tayyorlash aslida unchalik qiyin emas. Keling, birgalikda qadam-baqadam ishlaymiz.

1-qadam. Muqova tayyorlang

Uyingizdan bitta oddiy fayl-jild yoki muqova oling. Bu - sizning portfolioingiz bo‘ladi.

2-qadam. Birinchi varaqqa ismingizni yozing

Fayl-jildining birinchi varag‘iga katta va chiroyli qilib shularni yozing:

-Ism-familiyangiz

-Sinfingiz

-“Kelajak soati portfoliosi” deb sarlavha

3-qadam. Har bir mashg‘ulotdan keyin bitta varaq qo‘shing

Har safar “Kelajak soati” mashg‘ulotidan keyin siz nima qildingiz, o‘sha ishni (rasm, yozgan gaplaringiz, to‘ldirgan jadval) fayl-jildiga solib qo‘yasiz. Har bir varaqning yuqori burchagiga sanani yozishni unutmang.

4-qadam. Ishlarni tartib bilan joylashtiring

Varaqalarni oldin bajarilgani birinchi, keyingi ishlar ketma-ket tarzda joylashtirib boring. Ya’ni eng birinchi bajarilgan ish eng tepada bo‘ladi.

5-qadam. O‘zingiz haqingizda yozing

Alohida bitta varaqqa: “Men nimalarni yaxshi ko‘raman?”, “Kelajakda kim bo‘lishni xohlayman?” - shu kabi savollarga qisqagina javob yozing.

6-qadam. Ishlaringizni toza saqlang

Varaqalar burishmasin, iflos bo‘lmasin. Fayl-jildini doim ehtiyot qiling.

7-qadam. Har doim darsga olib keling

Portfolio doim yoningizda bo‘lsin - har “Kelajak soati” darsiga uni olib kelasiz.

Esda tuting: Portfolio - bu sizning kichik yutuqlaringiz yig'iladigan xazina kabi narsa. Chorak oxirida uni ochib ko'rsangiz, o'zingiz qancha ish qilganingizni ko'rib, hayron qolasiz!

V. Uyga vazifa (5 daqiqa)

Har bir guruhdan bir nafardan o'quvchi o'z o'rnidan turib, bugungi munozaradan olgan eng asosiy xulosasini bitta jumla bilan aytadi.

Uyga vazifa: "Yagona Vatan - yagona xalq" mavzusida loyiha ishini tayyorlash va taqdimot qilish ishlari bo'yicha guruhlardagi faoliyatni tashkil etish.